



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## SURXONDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024-YIL YANVAR-FEVRAL

# SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024-yilning 1-mart holatiga Surxondaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 261 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 591 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 26,1 % i Termiz shahrida joylashgan.

## 2024-yil 1-mart holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Termiz sh.	591
Jarqo'rg'on t.	194
Termiz t.	188
Denov t.	163
Sariosiyo t.	151
Boysun t.	136
Qumqo'rg'on t.	129
Sho'rchi t.	107
Angor t.	112
Qiziriq t.	108
Sherobod t.	93
Muzrabot t.	83
Oltinsoy t.	77
Bandixon t.	65
Uzun t.	64

1 288

Bino va inshootlar qurilishi

505

Fuqarolik obyektlarini qurish


468

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Jarqo'rg'on tumanida 194 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 8,6 %), Termiz tumanida – 188 ta (8,3 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-fevral uchun)

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 619,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil etdi.



2020

532,7  
mlrd. soʻm

109,2 %



602,9  
mlrd. soʻm

100,5 %

2021

676,2  
mlrd. soʻm

100,2 %

2022

582,9  
mlrd. soʻm

80,1 %

2023

619,7  
mlrd. soʻm


103,1 %

2024

Oldingi yilning mos davriga nisbatan



*Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.*



## 2024-yilning yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

**Hududlarning hajmi va 2023-yilning mos davriga nisbati,**  
mlrd. so'm va foizda


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	619,7	103,1	100,0
Termiz sh.	186,3	107,4	30,1
tumanlar:			
Oltinsoy	6,7	105,6	1,1
Angor	18,4	106,1	3,0
Bandixon	7,6	91,8	1,2
Boysun	47,1	109,6	7,6
Muzrabot	21,4	103,1	3,4
Denov	56,8	110,6	9,2
Jarqo'rg'on	46,1	100,4	7,4
Qumqo'rg'on	20,8	110,4	3,3
Qiziriq	19,7	105,8	3,2
Sariosiyo	77,4	84,3	12,5
Termiz	43,3	103,0	7,0
Uzun	12,2	107,4	2,0
Sherobod	37,7	108,6	6,1
Sho'rchi	18,2	105,0	2,9

2024-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida xususan, Termiz shahri (186,3 mlrd. so'm), Sariosiyo tumani (77,4 mlrd. so'm) va Denov tumanida (56,8 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2024-yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 73,6 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,1 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 87,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,3 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.



# 2024-yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 72,9 % i yoki 451,5 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**15,4** mlrd. soʻm Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 15,4 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi.

**282,3** mlrd. soʻm Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 282,3 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 62,5 % ni tashkil etdi.

**153,8** mlrd. soʻm Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 153,8 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,1 % ni tashkil etdi.


## Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



# 2024-yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

Jami bino va inshootlarni qurish – 456,0 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,4 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga kamayib, 65,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga ko'payib, 34,5 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida fuqarolik  
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari  
*Korxonalar turlari bo'yicha*

Fuqarolik obyektlarini qurish, *124,9 mlrd. so'm*



**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 28,3 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 13,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 71,7 % (13,4 % punktga ko'payish).



# 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, **38,8 mlrd. so'm**




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,6 % punktga kamaydi va 6,7 % ni tashkil etdi.

Qolgan 93,3 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,6 % punktga ko'paydi.


# 2024-yilning yanvar-fevral oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**60,8 %**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**108,3 %**




Norasmiy sektor

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**108,4 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 39,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 60,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 4,6 % ga kamayib, 6,4 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mln. soʻmda



## Jamiga nisbatan ulushi



Sariosiyo tumani



Termiz shahri




Qumqoʻrgʻon tumani

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 2,9 % i), Sariosiyo tumani (39,0 % ) va Qumqoʻrgʻon tumanida (13,9 %) qayd etildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024-yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,2 % i to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil etgan holda 422,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





# 2024-yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi, mlrd. so'm




171,5  
mlrd. so'm

Termiz shahri



30,5 mlrd.  
so'm

Denov tumani




35,6 mlrd.  
so'm

Boysun tumani

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Termiz shahrida (171,5 mlrd. so'm), Denov tumanida (30,5 mlrd. so'm) va Boysun tumanida (35,6 mlrd. so'm) qayd etildi.

# 2024-yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 23,4 % ni yoki 157,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ni tashkil etdi. Shundan 144,9 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 8,9 mlrd. soʻmni va 104,1 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 3,6 mlrd. soʻmni va 102,7 % ni tashkil etdi.




# 2024-yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

### Surxondaryo viloyati

- Termiz sh.
- Oltinsoy
- Angor
- Bandixon
- Boysun
- Muzrabot
- Denov
- Jarqoʻrgʻon
- Qumqoʻrgʻon
- Qiziriq
- Sariosiyo
- Termiz
- Uzun
- Sherobod
- Shoʻrchi



**26,4** mlrd. soʻm  
Denov tumani



**18,4** mlrd. soʻm  
Sariosiyo tumani




**11,4** mlrd. soʻm  
Boysun tumani


*Maʼlumot uchun:* koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Denov tumanida (26,4 mlrd. soʻm), Sariosiyo tumanida (18,4 mlrd. soʻm) va Boysun tumanida (11,4 mlrd. soʻm) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-fevral oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 3,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 615,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 0,6 % va 99,4 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oltinsoy tumanida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i), Angor tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i) va Boysun tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 % i) qayd etildi.

## **Qurilish ishlari**

### **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**  
**Tel. 76 225-65-59 (7520)**